

Olimpiada topshiriqlari

Tarix 10

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Muhammad Rahimxon I tomonidan qachon tilla tangalarni zarb etish yo'lga qo'yiladi?

- A) 1809-yil B) 1811-yil
C) 1807-yil D) 1816-yil

2. Kishilar bir-biridan kapitalning mavjudligi va daromad darajasiga qarab farqlanadigan jamiyat ... deb ataladi.

- A) sinfiy jamiyat B) industrial jamiyat
C) proleteriat jamiyat D) demokratik jamiyat

3. Nechinchi yilda Germaniya qurolli kuchlari Bosh shtabi ikki frontda urush olib borish rejasini ishlab chiqdi?

- A) 1914-yil B) 1905-yil
C) 1916-yil D) 1907-yil

4. Rus milliy teatri shakllanishida katta hissa qo'shgan F. G. Volkovning asl kasbi nima edi?

- A) shoir B) aktyor
C) savdogar D) quruvchi

5. Dastlabki kalendarning paydo bo'lishiga nima sabab bo'lgan?

- A) misrliklarning Nil daryosining suvisiz yashay olmasligi
B) misrliklarning qo'shni davlatlar bilan savdogarlikni amalga oshirishi
C) misrliklar tomonidan hosilni o'z vaqtida yig'ib olishi
D) Nil daryosi bo'ylab sayohatlarni amalga oshirishi

6. Qachon qadimgi yunon olimi Eratosfen birinchi bo'lib Yer shari yuzasining xaritasini tuzgan?

- A) mil. avv. I asrda B) milodiy I asrda
C) mil. avv. III asrda D) mil. avv. VI asrda

7. Dunyoda birinchi harfli yozuvni qaysi xalq tomonidan yaratilgan?

- A) finikiyaliklar B) misrliklar
C) mesopatamiyaliklar D) yunonlar

8. O'zbekiston tarixi davlat muzeyida qancha eksponat saqlanadi?

- A) 310 mingda ortiq B) 250 mingdan ortiq
C) 146 mingga yaqin D) 200 mingga yaqin

9. Jaloliddin Manguberdi Sind darayosidan kechib o'tganidan so'ng qaysi viloyatning hukmdori uning og'ir ahvolidan foydalanib, unga qarshi hujum qiladi?

- A) Bixar B) Bengaliya
C) Shatra D) Dehli

10. Kimning davrida Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan Xo'jand, O'rtepa viloyatlari qo'shib olindi?

- A) Shohruxbiy B) Abdurahimbiy
C) Abdulkarimbiy D) Erdonabiy

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati to'liq amalga oshirilishi va hukmronligining mustahkam bo'lishi uchun ...

- A) istilochi amaldorlarga keng vakolatlar berildi
B) harbiy zobitlarning xizmat muddati uzaytirildi
C) mahalliy xalq vakillaridan ishonchli odamlar ajratib olinib boshlandi
D) mahalliy aholiga ayrim yengilliklar va imtiyozlar berildi

12. Politsiya tuzilmalariga qo'shimcha tarzda kimlarga ispravniklar huquqini ham berdi?

- A) viloyat boshliqlariga B) volost boshliqlariga
C) guberniya boshliqlariga D) uyez d boshliqlariga

13. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyodagi ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omilni aniqlang.

- A) O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi
B) 3 ta davlat o'rtasidagi kelishmovchiliklar va notinchliklar
C) ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qo'l mehnatida qilinganligi, soddaligi
D) hunarmandchilikning boshqa sohalarga qaraganda sust rivojlanishi

14. Rivoyatga ko'ra, Bobur Mirzo shayboniylardan yengilib, Movarounnahrda qaysi hudud orqali chiqib ketadi?

- A) Kobul B) Balx
C) Farg'ona D) Qarshi

15. Qo'qon xonligi hududini Rossiya hududi bilan qaysi cho'l ajratib turgan?

- A) Bedpakdala B) Ko'kdala
C) Qoraqum D) Qizilqum

16. XVI asrning ikkinchi yarmi - XVII asrning boshlarida ispan dengizchilarining Tinch okeani havzasiga ekspeditsiya uyushtirishi natijasida kashf etilgan orollarni aniqlang.

1. Solomon; 2. Janubiy Polineziya; 3. Melaneziya; 4. Madeyra; 5. Kanar; 6. Azor.

- A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5
C) 1, 2, 3 D) 4, 5, 6

17. Qaysi tadbir Fransiyaning yangi mustamlakalar bosib olish yo'lidagi dastlabki qadami bo'ldi?

Olimpiada topshiriqlari

Tarix 10

- A) 1881-yil Tunisni bosib olishi
- B) 1879-yil harbiy-siyosiy koalitsiyaga kirishi
- C) 1891-yil Senegalni bosib olishi
- D) 1883-yil Vyetnamga hujum boshlashi

18. Angliyada inqilob yuz berishining asosiy sababini aniqlang.

- A) Savdogarlar uchun patentning narxi ko'tarilgani uchun
- B) Fransiya bilan urushda kelishuvchilik siyosati olib borgan uchun
- C) Qirolning asosiy raqibi Ispaniya bilan murosasozlik olib borayotgani
- D) Qirol parlament va puritanlarga qarshi kurash boshlagani

19. Buyuk Britaniya imperiyasi qachon tashkil etilgan?

- A) 1855-yil
- B) 1901-yil
- C) 1756-yil
- D) 1876-yil

20. AQSHda qaysi prezident tomonidan bojxona tariflari to'g'risidagi yangi qonun qabul qilinadi?

- A) Uilyam Taft
- B) Vudro Vilson
- C) Teodor Ruzvelt
- D) Uilyam McKinley

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. X asrda Germaniya aholisi ko'proq kimlarning gapiga quloq solgan?

- A) graflarga
- B) imperatorlarga
- C) feodallarga
- D) gersoglarga

22. Kiyev Rusi davlatida qaysi hukmdor istilolar emas, balki mohirona diplomatiya orqali mamlakatni yuksaltirishga erishgan?

- A) Olga
- B) Igor
- C) Vladimir
- D) Yaroslav

23. Slavyan yozuvi qaysi alifbo asosida yaratilgan?

- A) yunon alifbosi
- B) finikiya alifbosi
- C) vizantiya alifbosi
- D) rim alifbosi

24. Iroqning Kufa shahrida bo'lgan qo'zg'olonda asosan kimlar qatnashgan?

- A) dehqonlar va chorvadorlar
- B) zodagonlar va qullar
- C) shahar kambag'allari va hunarmandlar
- D) dehqonlar va qullar

25. Qanday omillar Turk xoqonligining markazlashgan davlatga aylanishiga imkon bermadi?

- A) Katta qabilalar yoki qabilalar ittifoqining markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka intilishi, hududlardagi hokimliklarning mustaqil bo'lishga intilishi
- B) Janubdan doimiy sosoniylar tazyiqi
- C) Eftaliylar avlodlarining hokimiyatni o'z qo'lga olishga intilishi
- D) O'zaro olib borilgan urushlar natijasida

26. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hokimliklarida boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi nimadan iborat bo'lgan?

- A) Xoqonga belgilangan soliq va qo'shinni to'plab berish
- B) Fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish va ularni vaqtida xoqon saroyiga yetkazish
- C) Mahalliy hokimlikda tinchlikni saqlash va yig'ilgan soliqni xoqon saroyiga yetkazish
- D) Fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan

27. "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom"ga muvofiq viloyat bo'limlarining harbiy asosda tashkil etilishidan maqsad nima edi?

- A) Rossiya hukumatining kelgusidagi harbiy rejalarini amalga oshirilishida tayanch hudud vazifasini o'tashi ko'zda tutilgan
- B) rus harbiy zobitlarni boshqaruvdagi mansablar bilan ta'minlash orqali rag'batlantirish
- C) O'rta Osiyoning bosib olingan hududlariga harbiy qal'alar qurish va u yerda harbiy holat joriy qilish
- D) Rossiya imperiyasining boshqa viloyatlaridan farqli ravishda bu o'lkalarda mustaqil siyosiy va ijtimoiy siyosat olib borish

28. Quyidagilardan qaysi biri Chig'atoy xoni Kebekxon davriga xos xususiyatlarga muvofiq emas?

- A) Kebekxon mo'g'ul hukmdorlari orasida birinchi bo'lib, o'z qarorgohini Movarounnahrda ko'chirgan
- B) Kebekxon davrida "Kepaki" tangalari Samarqand va Qarshi shaharlarida zabt etilib, muomalaga chiqarilgan
- C) Kebekxon davrida ma'muriy va pul islohoti o'tkazilgan
- D) Kebekxon davrida Erondagi Xulokiylar davlati va Oltin O'rda xonlarining kumush tangalari namunasida pullar zarb etilgan

29. Neolit davrida hunarmandchilik rivojiga zamin yaratgan omilni aniqlang?

- A) metall qurollarning kashf etilishi
- B) kulolchilik charxining paydo bo'lishi
- C) yog'och va toshga ishlov berishning paydo bo'lishi
- D) o'troq turmush tarziga o'tilishi

30. Qadimgi Rim konsullari vazifasiga quyidagilardan qaysi biri kirmas edi?

- A) yil davomida Rim respublikasini boshqarish
- B) rimliklar ustidan sud o'tkazish
- C) urush davrida qo'shinga qo'mondonlik qilish
- D) xalq majlisida senat a'zolarini nomzodlarini taqdim etishi